

INGICHKA TOLALI G'O'ZA XUSUSIYATLARI VA TADQIQOT OLIB BORILAYOTGAN NAVLARINING TAVSIFI

A.O.Qo'ziboyev

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14711130>

Annotatsiya: Maqolada ingichka tolali g'o'za ildiz sistemasi, barglarining tuzilishi, ko'saklarining og'irligi, defoliatsiya qilishda defoliant miqdori va (Marvarid, Surxon-14, Bo'ston, G'uzor)navlarining tavsifi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ingichka tolali g'o'za, nav, ildiz sistemasi, chigit, ekish sxemasi, ko'sak massasi, hosil elementleri, qator orasiga ishlov berish, o'g'itlash me'yori, defoliatsiya.

Абстрактный. В статье описана корневая система хлопчатника тонковолокнистого, строение его листьев, масса коробочек, количество дефолианта при дефолиации и описание сортов (Марварид, Сурхан-14, Бостон, Гузор).

Ключевые слова: хлопчатник тонковолокнистый, сорт, корневая система, семена, схема посева, масса коробочек, элементы урожайности, междурядная обработка, норма внесения удобрений, дефолиация..

Abstract. The article describes the root system of fine-fiber cotton, the structure of its leaves, the weight of its corms, the amount of defoliant used in defoliation, and the varieties (Marvarid, Surkhan-14, Bostan, Guzar)

Keywords: fine-fiber cotton, variety, root system, seed, planting scheme, cob mass, crop elements, inter-row cultivation, fertilization rate, defoliation.

Kirish. G.barbadenze turiga kiruvchi uzun (ingichka) tolali navli g'o'zalar o'rta tolali g'o'za navlari nisbatan tezpishar bo'lib, keng maydonlarda ekiladi, ingichka tolali g'o'za navlari esa o'suv davri uzunroq bo'lgan janubiy mintaqalarda ekiladi va umumiy paxta maydonining 10 % ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi nafaqat Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi orasida, balki jahondagi eng yirik paxta yetishtiruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. U paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda V-VII o'rinlarni egallab, ko'p miqdorda paxta tolasini xorijiy mamlakatlarga eksport qilmoqda.

O'zbekiston paxtachiligi uzoq o'tmishga ega bo'lsada, sohaning jadal rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga asosan 1860 yilda O'zbekiston xududida 36 ming gektar maydonga chigit ekilib, gektaridan 7 sentnerdan hosil olingan, yalpi hosil 25 ming tonnani tashkil etgan. Paxtaga talab tez orta borganligi natijasida 1913 yilga kelib O'zbekiston xududida yetishtirilgan hosil 517,2 ming tonnani tashkil etdi, hosildorlik esa 12,2 sentnerga ko'tarildi.

Ingichka tolali g'o'za xususiyatlari. Ingichka tolali g'o'zalar (G.barbadense) hujayra shirasining konsentratsiyasi o'rta tolalarga nisbatan 0,3-0,5 % yuqori bo'lganligi uchun ildiz sistemasining so'rish kuchi baland, tuproq sho'rga chidamliroq, issiqlikka va kuzgi yengil sovuqqa ham bardoshliroq bo'ladi.

Ildiz sistemasi baquvvat va chuqur ketadi. Poyasi yotib qolmaydi, shoxlari cheklangan, cheklanmagan va o'ltiriqli («0») tipda bo'ladi, nav xususiyatlarga qarab hosil shoxlari 3-8 barg qo'ltig'ida paydo bo'ladi.

Barglari yirik, etdor, ostki qismi tuklangan, barg tomirlarida shira bezlari bo'lib, ko'p miqdorda asal beradi.

Ko'saklari kichik, massasi 3,0-4,5 g, pastki yarusi 3-4 chanoqli, o'rta yarusi 4-chanoqli, ustki yarusida 5-chanoqli ham bo'ladi. Tola uzunligi 32-33 mm dan 43-48 mm gacha. Tola chiqishi 27-36 %.

G'o'zada hosil elementlari to'kilishi o'rta tolalilarga nisbatan ikki marta kam bo'ladi, 35-45 % dan oshmaydi.

Ingichka tolali g'o'zalar shudgorlash chuqurligini oshira borishiga talabchan bo'lib, yerni har 4-5 yilda 45-50 sm chuqurlikda yumshatish samaralidir.

O'g'it meyori o'rta tolalilarga nisbatan 10-15 % ko'proq belgilanadi. Chigiti ko'pgina navlarda tuksiz, 1000 dona chigitning vazni o'rta tolalilarga nisbatan 10-15 g og'irroqdir. Chigitni erta muddatda yoki kech ekish ham zararlidir. Ekish usullari odatdagidek bo'lib, ekish normasini 10-15 % yuqori qo'yish mumkin.

Qator oraliqlariga ishlov berishni o'z vaqtida o'tkazish lozim. Sug'orish rejimidagi xususiyati shundaki, ildizining kuchli rivojlanganligi hisobiga suvga talabi nisbatan kamroq. Tuproq namligi dala nam sig'imiga nisbatan 60-65-60 % yoki o'suv davri oxirida 50-55-50 % bo'lganda ham osa oladi.

Ingichka tolali g'o'zalar paxtasi mashinalarda bemalol terib olinadi. Defoliatsiya har bir g'o'zada o'rtacha 3-4 ko'sak yoki umumiy ko'sakning 30-40 % ochilganda o'tkaziladi. Defoliant meyori o'rta tolaliga nisbatan 10- 20% ortiqroq qilib belgilanadi.

Tadqiqot uslubi va obyekti. Qashqadaryo viloyatining taqirsimon tuproqlari sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda, ingichka tolali g'o'zaning Surxon-14, Marvarid, G'uzor, Bo'ston navlari tahlil qilindi.

Surxon-14. O'zbekiston g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot institutida M.I.Iksanov, F.Isroilova, X.Xusanovlar tomonidan ingichka tolali g'o'zaning Ashxabad-53 va Karshinskiy-6 navlarini chatishtirish natijasida yaratilgan. 2009-yilda davlat reyestriga kiritilgan shoxlanishi 0 tipda. O'simlikning o'suv davri 122-124 kun, bo'yi 110-120 sm, asosiy poyadagi bo'g'imlar soni – 20 ta, bo'g'im oralig'i – 4,0 sm, bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6 - 4g, 1000 ta chigit vazni – 127-132 g, tola chiqimi – 37,6 %, tola uzunligi – 37,2 mm, tola indeksi – 4.6 g, bitta o'simlikdagi paxta vazni 54.0 g va undan yuqori, mikroneyr ko'rsatkichi – 3,6, uzilish kuchi – 40,5 gs/teks.

Marvarid. Ingichka tolali Surxon-9 va Termiz-32 navlarini o'zaro duragaylash va ko'p yillik tanlov olib borish asosida yaratilgan, 0-tipli shoxlanishga ega, tezpishar nav. O'suv davri – 120-125 kun, o'simlik bo'yi – 90-100 sm, asosiy poyadagi bo'g'imlar soni – 20 ta va undan yuqori, bo'g'im oralig'i – 4,0 sm, bitta ko'sakdagi paxta vazni – 3.4 -4,0 g, 1000 ta chigit vazni – 115-120 g, tola chiqimi – 35-36 %, tola indeksi – 6,6 g, tola uzunligi – 38 mm, bitta o'simlikdagi paxta vazni – 70 g va undan yuqori.

G'uzor. Ingichka tolali Surxon-9 va Duru-Gavxar navlarini o'zaro duragaylash va ko'p yillik tanlov olib borish asosida yaratilgan, 0-tipli shoxlanishga ega, tezpishar nav. O'suv davri – 125-127 kun, o'simlik bo'yi – 110-120 sm, asosiy poyadagi bo'g'imlar soni – 25 ta, bo'g'im oralig'i – 4,0 sm, bitta ko'sakdagi paxta vazni – 3,7-4,0 g, 1000 ta chigit vazni – 133-136 g, tola chiqimi – 35 %, tola indeksi – 6,6 g, tola uzunligi – 39 mm, Bitta o'simlikdagi paxta vazni 60,0 g va undan yuqori. O'zbekiston Respublikasi O'simlik navlari davlat reyestrda 26.04.2024 yilda ro'yxatdan o'tkazildi.

Bo'ston. Ingichka tolali Buxoro-7 va Surxon-9 navlarini o'zaro duragaylash va ko'p yillik tanlov olib borish asosida yaratilgan, 0-tipli shoxlanishga ega, tezpishar nav. O'suv davri – 125

kunni tashkil qiladi. O'simlik bo'yi – 95-100 sm, asosiy poyadagi bo'g'imlar soni – 24 ta, bo'g'im oralig'i – 4,0 sm, bitta ko'sakdagi paxta vazni – 3,7 g, tola chiqimi – 35 %ni tashkil qiladi. Tola indeksi – 6,6 g, tola uzunligi – 39,4 mm, tolasi mayin, bitta o'simlikdagi paxta vazni 60,0 g va undan yuqori.

Bundan tashqari Respublikamizda ingichka tolali g'o'zaning Ashxobod-25, Termiz-16, Termiz-24, Termiz –31, Karshi–8 va S-6037 navlari mavjud.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyatining taqirsimon tuproqlari sharoitida, ingichka tolali g'o'za navlari yetishtirish uchun qulay mintaq bo'lib xisoblanadi. Yer maydonining holatidan kelib chiqib navlarni va ekish sxemasini to'g'ri tanlash g'o'zadan yuqori hosil olish imkonini beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi VazirlarMahkamasining 2020-yil 30-yanvardagi 47-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi «Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-170 sonli qarori.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI, Toshkent, 2007. B.61.
4. R.Oripov, S.Ostonov "Paxtachilik" (G'o'za morfologiyasi, biologiyasi va o'stirish texnologiyasi) Samarqand-2005-yil.
5. N.E.Chorshanbiyev, A.O.Qo'ziboyev "Ingichka tolali g'o'za navlarini 76x9,9x1 sxemada ekib yuqori va sifatli hosil olish texnologiyasi" Tavsiyanoma Qarshi-2024.
6. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. М, Колос, 1964. Ст 173.
7. Chorshanbiyev N.E. G.barbadense L. turi mahalliy g'o'za navlarining F1-F2 o'simliklarida morfo-xo'jalik belgilarining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi. Diss.bio.fan.fal.doktori (PhD). Toshkent, 2018, -B.155.